

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARDA TABIIY (SCIENCE) FANNI O'QITISH

Axmedova Dilfuza Mustafo qizi

*Qarshi Davlat Pedagogika Universitetining Pedagogika Instituti Boshlang'ich ta'lim
va sport tarbiyaviy ish yunalishi talabasi*

+998881900098

dilfuzaaxmedova303@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarni kichik yoshidan tabiiy fanlarni o'qishga rag'batlantirish haqida, har bir kasb egasidan tadbirkorlik, bilimdonlik va kasbiy mahoratni takomillashtirib borishni talab etilishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *o'quvchilar, fan, o'qitish, faoliyat, bilim, amaliyot, ilm-fan, taraqqiyot, sifat.*

O'quvchilarning bo'lajak kasbiy sifatlarini shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliyot ham muhim o'rin egallaydi. Tabiiy ilmiy bilimlar uzoq yillar davomida amaliy faoliyat tufayli qo'lga kiritilgan. Atrof muhitni bilishda, anglashda ilmiy tajriba, amaliy bilimlar muhim rol o'ynab kelgan va kelmoqda. Ma'lumki, tabiatshunoslik keng qamrovli moddiy dunyoni rang-barang xususiyatlari, tabiatning har xil voqea hodisalarini o'rganuvchi fan bo'lib, ilmiy tajriba asosida shakllanadi, amaliyot esa mazkur fanning poydevori hisoblanadi. Insoniyatni tabiat qonunlari haqidagi bilimga asoslangan amaliy faoliyati bilish jarayonini, ilm-fan taraqqiyotini belgilaydi. Amaliyot haqiqat mezonidir. Bilimlarga ehtiyoj amaliyotda tug'iladi va ularning to'g'riligi amaliyot orqali tekshiriladi hamda tasdiqlanadi. Yangi fan o'quvchilarni kichik yoshidan tabiiy fanlarni o'qishga rag'batlantirish, ularda olam haqida yaxlit tasavvur paydo qilishga yordam beradi. Buning bilan bola fizika-kimyo qiyin emas, qiziq fan ekanini angelaydi va uni o'rganishga o'zida rag'bat sezadi, fani (tabiiy fanlar) qaysidir fandan voz kechish yoki qaysidir fanning o'rniga joriy etilayotgani yo'q. Aksincha, ta'lim sifatini oshirish uchun mavjud fanlarning integratsion tarzda o'qitilishini ta'minlaydi. Masalan, yomg'ir haqida o'rganish jarayonida bola uning tarkibi, fizik xususiyatlari, qaysi fasllarda va qayerlarda yog'ishi, yomg'ir ta'sirida Yerda qanday o'zgarishlar bo'lishi. o'simliklar uchun foydasi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

SCIENCE fani amalga kiritilishidan oldin xalqaro amaliyot, O'zbekistonda ishlayotgan xususiy va xorijiy maktablar tajribasi o'rganildi. Yangi fan o'quvchilarni kichik yoshidan tabiiy fanlarni o'qishga rag'batlantirish, ularda olam haqida yaxlit tasavvur paydo qilishga yordam beradi. Buning bilan bola fizika-kimyo qiyin emas, qiziq fan ekanini angelaydi va uni o'rganishga o'zida rag'bat sezadi. SCIENCE fani (tabiiy fanlar) qaysidir fandan voz kechish yoki qaysidir fanning o'rniga joriy etilayotgani yo'q. Aksincha, ta'lim sifatini oshirish uchun mavjud fanlarning integratsion tarzda o'qitilishini ta'minlaydi. Masalan, yomg'ir haqida o'rganish jarayonida bola uning

tarkibi, fizik xususiyatlari, qaysi fasllarda va qayerlarda yog'ishi, yomg'ir ta'sirida Yerda qanday o'zgarishlar bo'lishi, o'simliklar uchun foydasi haqida ma'lumotga ega bo'ladi. SCIENCE fani 1-2-sinfda "Atrofimizdagi olam", 3-4 sinfda "Tabiatshunoslik", yuqori sinflarda esa 4ta alohida fan, geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7 sinfdan boshlab) fanlarini o'zida birlashtiradi. Ayni paytda 1-2-sinfda "Atrofimizdagi olam" (1 soat), 3-4-sinfda tabiatshunoslik (1 soat), 5-sinfda botanika, geografiya, fizika 1 soatdan, 6-sinfda 2 soatdan, jami 12 soat o'qitiladi. Hozirgi takliflarga ko'ra, SCIENCE fani 1-sinfda bir soat, 2-4-sinfda ikki soatdan, 5-6-sinfda esa 3 soatdan, jami 13 soat o'qitilishi tavsiya etilmoqda. Shunga ko'ra, tabiiy fanlar boshqa fanlarning soatini qisqartirmaydi.

Tabiiy fanlarni joriy etishdan oldin tanlab olingan maktablarda shu o'quv yilining to'rtinchi choragida tajriba asosida fanni o'qitamiz. Tabiatshunoslikning o'qitish metodikasini yaxshi bilish boshlang'ich maktab o'qituvchisiga bolalarni o'qitishni to'g'ri tashkil qilish imkonini beradi. Metodika o'qituvchini tabiatshunoslikni o'qitish nazariyasi bilan qurollantirib, o'qitish mahoratini egallab olishiga imkon yaratadi. o'quv materiallarining mazmunini ochib berishda xilmaxil o'qitish metodlaridan foydalanishga turlicha yondashish mumkin. U yoki bu metodni tanlashda o'qituvchi shuni nazarda tutishi kerakki, bu tanlash metodlar rivojlantiruvchi ta'limning vazifalarini ta'minlasin. Tabiatshunoslik darslarida amaliy ishlar, suhbatlar, hissiyotni qo'zg'atuvchi hikoyalar, ayniqsa, mustaqil ishlardan ko'proq foydalanish kerak, bunda tadqiqiy yondashish, murakkab bo'lmagan tahlil va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, tabiat hodisalari o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni aniqlash o'sha ishlarning majburiy tarkibiy qismlari bo'lishi lozim.

Biz yashayotgan glaballashuv jarayonida har bir soxada ilg'or ishlar amalga oshirilmoqda buni zamonning o'zi talab etmoqda. Yosh avlod har soxada ildam. Chunki jamiyatimiz axborot oqimiga boy. Jamiyatimiz talab etayotgandek har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalab yetishtirishda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishda yosh avlodga chuqur bilim beradigan, fikrlash doirasi keng, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, huquqiy demokratik jamiyat a'zolarini ozod va erkin yashashga, mustaqil fikr yuritishga o'rgata oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifa qilib belgilangan. Zamon shiddat bilan o'zgarib borar ekan, ta'lim sohasi ham u bilan barobar o'zgaradi va o'qituvchidan o'z faoliyatini o'zgartirishni talab etadi. O'zbek pedagogikasi rivojiga katta hissa qo'shgan Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "Bolalarda fikrlash qobiliyatini o'stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug'ullanish benihoya zarur va muqaddas bir vazifa" ekanligini ta'kidlab o' tadi. Hozirgi davr har bir kasb egasidan tadbirkorlik, bilimdonlik va kasbiy mahoratni takomillashtirib borishni talab etadi. Bugun o'qituvchining asosiy vazifasi faqat ta'lim berishgina emas, balki yangi inovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilishi boshqaruvchilikdan ham iborat bo'lib, u ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilish va boshqarishni talab etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLR RO'YHATI:

1. D. Sharipova. D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. M.Nuriddinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005-yil
3. A Baxronov. Tabiatshunoslik 3-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T: Cho'lpon NMIU 2012 y.
4. A Baxronov Tabiatshunoslik 4-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T. Sharq NMIU 2011 y.

5. GM Sayfullaev. Tabiatshunoslik darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. Oquy qollanma Buxoro 2020.
6. GM Sayfullaev. Biologiya promislovix xishnix vidov rib, Nizovya basseyna reki Zarafshan Buxara-2020
7. Сафарова М.С., Хамитова Ф.А. Непосредственное влияние заболеваний челюстно- лицевой области и зубов на психику и внутренние органы/ Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации 2015. №2 С. 4-6.
8. Kamalova F.R. Development and evaluation of the effectiveness of the dental dental examination program for children with diabetes in adverse environmental Conditions/ Academicia 10 Issue 1, January.-2020. Vol. 1. - P. 1364 - 1366.